



**AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH
ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AUDITORIYADAN
TASHQARI MUSTAQIL ISHLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Babadjanov Kadam Raximbergenovich. Abu rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti “Kompyuter ilmlari” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Atabayeva Mavjuda Rustamovna Abu rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti kademik litseyi geografiya fani o‘qituvchisi

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ
РАБОТЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ВНЕ УРОКА НА ОСНОВЕ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОКОММУНИКАТИВНЫХ
СРЕДСТВ.**

Бабаджанов Кадам Рахимбергенович. Старший преподаватель кафедры «Компьютерные науки» Ургенчского государственного университета имени Атабаева Мажвуда Рустамовна, учитель географии Академического лицея Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

**IMPROVING THE EFFICIENCY OF FUTURE TEACHERS'
INDEPENDENT WORK OUTSIDE HE CLASSROOM BASED ON THE USE
OF INFORMATION AND COMMUNICATION TOOLS**

Babadzhanov Kadam Rakhimbergenovich. Senior lecturer of the Department of "Computer Science" of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni
Atabayeva Mavdu Rustamovna Teacher of Geography of the Academic Lyceum of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

Annotatsiya:

Berilgan maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil ta‘limini tashkil qilishning ilmiy jihatlarini, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarining nazariy va amaliy asoslari haqida ma‘lumot berilgan bo‘lib, talabalarning va bo‘lajak pedagoglarning mustaqil ishlashlari uchun lozim bo‘ladigan jarayonlar mazmunan tadqiq qilingan.

Kalit soʻzlar: Tyutor, kredit modul tizimi, mustaqil taʼlim, pedagogik texnologiya, ijodiy shakl, laboratoriya, zamonaviy taʼlim, muammoli taʼlim, taʼlim tizimi, konseptsiya, auditoriya.

Аннотация:

В данной статье рассмотрены научные аспекты организационного самостоятельного образования будущих учителей вне урока, теоретические и практические основы их самостоятельной работы вне урока, основанной на использовании будущими учителями информационно-коммуникативных средств, а также процессы, работы студентов анализируются.

Ключевые слова: необходимые для самостоятельной Тьютор, кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, педагогическая технология, творческая форма, лаборатория, современное образование, образовательная система, концепция, аудитория. проблемное обучение,

Annotatsion:

In this article, the scientific aspects of organizing independent education of future teachers outside the classroom, the theoretical and practical foundations of independent work outside the classroom, based on the use of information and communication tools by future teachers, are developed, and the processes necessary for independent work of students are researched done.

Key words: Tutor, credit module system, independent education, pedagogical technology, creative form, laboratory, modern education, problem-based education, educational system, concept, audience.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taʼlim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega boʻlib kelgan. Mamlakatimizda taʼlim borasida olib borilayotgan islohotlar shuni taqozo qiladiki bugungi kunning salohiyatli kadrlarini kamolga yetkazishda har tomonlama rivojlangan mamlakatlar islohotlarini qoʻllash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada 27.07.2017-yilda qabul qilingan PQ-3151 “Oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorida “Oʻqitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini taʼlim jarayoniga joriy etish, oliy taʼlim muassasalarini zamonaviy oʻquv-laboratoriya anjomlari va oʻquv-metodik adabiyotlar bilan taʼminlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, oliy taʼlim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari koʻrish” kerakligi keltirib oʻtilgan. Aynan

pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kreativ va ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri bu - mustaqil ijodiy faoliyatni shakllantirish hisoblanadi. Mustaqil ijodiy faoliyat talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda auditoriyadan tashqari mustaqil ta‘limning ahamiyati katta. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini pedagogik boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Talaba o‘zining harakatini rejalashtirishi;
2. O‘z maqsadini tanlash, ularga erishishning yo‘l va vositalarini aniqlashi;
3. Berilgan topshiriqlarni birlashtirish, tashkillashtira olishi; yechish uchun o‘z imkoniyatlarini
4. O‘z faoliyatini nazorat qilishi va mos ravishda baholay olishi;
5. O‘zining keyingi harakatlarini o‘zi nazorat qilishi va o‘zini o‘zi baholashni amalga oshira olishi.

Talabalarning mustaqil va ijodiy ishini to‘g‘ri tashkil etishda quyidagi kriteriyalardan foydalanish mumkin: - ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida kutubxonada mustaqil o‘zlashtirish va mavzuning mohiyatini yoritib berish; - kompyuter sinflarida elektron darsliklar, virtual stendlar, multi- media dasturiy majmualari yoki o‘rgatuvchi hamda bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv kompyuter dasturlari yordamida topshiriqlarni mustaqil o‘zlashtirish; - hisob-grafik, jadval-diagramma ishlarini aniq maqsadlar asosida bajarish; - laboratoriya yoki amaliy mashg‘ulotlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, ularning maqsadlarini belgilab olish; - maket, model, namunalar, detallar yoki kompyuter dasturlari yaratish orqa-li ko‘rik tanlovlarda qatnashish va ularni namoyish etish; - berilgan mavzu bo‘yicha referat yoki ma‘ruza tayyorlash, seminar yoki anjumanlarda ma‘ruza qilish; - fanlar bo‘yicha sinfdan tashqari berilgan misol va masalalarni, nazariy savollarni, test topshiriqlarini bajarish; - mintaqaviy ta‘lim portallarining axborot manbalari bilan ishlash, boshqa ta‘lim muassasalarining axborot-ta‘lim resurslaridan foydalanish; - o‘qituvchi ko‘rsatmasiga binoan reyting tizimi asosida o‘tkaziladigan nazorat turlariga yoki yozma ishlarga tayyorgarlik ko‘rish; - fan olimpiadalarida qatnashish uchun an‘anaviy bo‘lmagan misol, masala yoki topshiriqlarni bajarish; - imitatsion o‘yinlar tashkil etish, ularning ssenariylarini tayyorlash, tahlil etish; - ishlab chiqarish tashkilotlari bilan tuzilgan xo‘jalik shartnomalarida faol ishtirok etish.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishni kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, O.Yu. Polyanichko o‘z-o‘zini tarbiyalash kompetensiyasini shakllantirishni talabalarning sinfdan tashqari mustaqil ishi tizimining asosiy maqsadi

sifatida belgilaydi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini E.N. Trushchenko, muayyan sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin deya baho beradi, bunda: - talabalarning ichki, tashqi va protsessual motivatsiyasini rivojlantirish orqali mustaqil ijodiy faoliyatga munosabat motivatsiyasini ta'minlash; - o'quv kurslarini kasbiy yo'naltirilgan vazifalar tizimi sifatida loyihalash, ularni hal qilish talabani ta'lim faoliyatidan professional faoliyatga o'tishga imkon beradi; - telekommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning o'quv faoliyatini metodik jihozlash; - bo'lajak mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanish jarayonini monitoring qilish asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash. Informatikani o'rganish, informatika haqida haqiqatni bilishni tavsiflash shakli va bilish metodi sifatida tasavvur qilib insonning madaniyati va iqtidorining shakllanishiga zamin yaratadi. Ta'lim tarbiyaning umumiy maqsadlaridan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va roldan hozirgi axborotlashtirilgan jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda informatikani o'qitish o'quvchilarda iqtidorni shakllantirishning maqsadlarini quyidagicha - o'quvchilarda kompyuter belgilash savodxonligini mumkin: shakllantirish; - o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirib olishlarini ta'minlash; - o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rolini ochib berish; - texnika asrida kompyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Informatikadan mustaqil ishlar bajarish o'quvchilarning individual faoliyatini nazarda tutuvchi shakllardan biri hisoblanadi. Informatika fanidan nazariy darsni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi: qizitish va qiziqtirish (motivatsiya), ma'lumot berish, bilim berish, o'rganilgan bilimlarni qayta ishlash boyicha topshiriqlar berish, tahlil va sintez, baholash.

Bo'lajak o'qituvchilarning faol mustaqil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Bunday eng jiddiy omil — kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik. Bo'lg'usi o'qituvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni ko'rib chiqaylik: 1. Bajarilayotgan ishning foydaliligi. Agar pedagog faoliyati davomida o'zi bergan mustaqil ish topshirig'i haqida o'quvchilarda ish natijalarining kundalik hayotda-jumladan ma'ruza jarayonida, metodik qo'llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga

bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko'ra, talabani ruhan bunday ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko'rsatib berilishi kerak. 2. Bo'lajak o'qituvchining ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar. 3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish va boshqalar. 4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi. 5. Mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o'quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi ham talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishiga imkon beradi. Bugungi kundagi kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limning nisbati bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha mustaqil ishga mo'ljallangan o'quv rejasida mustaqil ishlarni tashkil etish belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki, mustaqil ishlar uchun yetarlicha vaqt ajratilgan. O'qituvchining vazifasi talabaning — bo'lajak yuqori malakali mutaxassisning yaxshi tomonlarini ko'rish va ko'paytirishdan iborat. Har qanday fanni o'rganishda mustaqil ishni tashkil etishning o'zaro aloqador 1. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar. uch shakli ko'zga tashlanadi: 2. Auditoridagi mustaqil ishlar. Bu bevosita o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladi. 3. Ijodiy.

Talabalarda mustaqil bilimlarini zamon talabiga moslashtirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidan zarurlarini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari va masofadan o'qitish. – T.: Iste'dod. 2006. 240-b.
2. Omonov H.T., Xo'jayev N.X. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent. "Iqtisod-Moliya" -2009-y. 240-b
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim amaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2004. 220-b



4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000. 180-b
5. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. «Xalq ta'limi» jurnali, 2001, №3, 69-71-b.
6. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000. 237-b
7. Xusainov R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli. Zamonaviy ta'lim. 2016. №4. - 25-32 b.
8. Ibragimova G.N. Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish Zamonaviy ta'lim. 2017.№4. B. 30-35.